



HUDUDLARNI BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANTIRISH VA MOLIVAVIY SALOHIYATINI OSHIRISH

i.f.d., prof. Xasanov Baxodir Akramovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

ORCID: 0000-0003-4673-8396

x.b.a@mail.ru

prof. Ismoilov Ravshanjon Baxritdinovich

"Biznes va fan universiteti" nodavlat oliy ta'lim universiteti

ORCID: 0009-0009-0546-7981

r.ismailov59@mail.ru

Akramov G'olibjon Bahodir o'g'li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi

*"O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning
ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy-tadqiqot markazi*

ORCID: 0009-0005-5560-7883

ice.akramov@gmail.com

Annotatsiya. O'zbekistonda hududlarni barqaror va jadal rivojlantirish uchun ularning kompleks mutanosib rivojlanishi, resurslardan foydalanish samaradorligi, iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy salohiyatini baholashning yagona tizimini joriy etish, hududlarni rivojlantirish uchun zarur moliyaviy resurslar va imkoniyatlar bilan ta'minlash, mahalliy davlat hokimiyati organlarining moliyaviy erkinligini yanada oshirish, mahalliy budjetga tushumlar to'liqligini ta'minlash strategiyalarini ishlab chiqish va uni amaliyotga tatbiq etish borasidagi ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur maqolada hududlarni barqaror rivojlantirish masalalari ham nazariy va ham amaliy jihatdan yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: milliy iqtisodiyot, hudud, salohiyat, iqtisodiy salohiyat, moliyaviy salohiyat, moliyaviy resurs, byudjet salohiyati, yalpi hududiy mahsulot, aholi turmush darajasi.

УСТОЙЧИВОЕ ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ И ПОВЫШЕНИЕ ФИНАНСОВОГО ПОТЕНЦИАЛА РЕГИОНОВ

д.э.н., проф. Хасанов Баходир Акрамович

Ташкентский государственный экономический университет

проф. Исmoilов Равшанжон Бахритдинович

Негосударственное высшее учебное заведение

«Университет бизнеса и науки»

Акрамов Голибжон Баходир угли

Научно-исследовательский центр

*«Научные основы и проблемы развития экономики Узбекистана»
при Ташкентском государственном экономическом университете*

Аннотация. Для устойчивого и ускоренного развития регионов в Узбекистане целесообразно внедрение единой системы оценки их комплексного сбалансированного развития, эффективности использования ресурсов, экономического, инвестиционного и финансового потенциала, обеспечение необходимыми финансовыми ресурсами и возможностями для развития регионов, дальнейшее повышение финансовой самостоятельности органов государственной власти на местах, дальнейшее расширение масштабов научных исследований по разработке и внедрению стратегий обеспечения полноты поступлений в местный бюджет. В данной статье освещены вопросы устойчивого развития регионов как в теоретическом, так и в практическом плане.

Ключевые слова: национальная экономика, регион, потенциал, экономический потенциал, финансовый потенциал, финансовый ресурс, бюджетный потенциал, валовой региональный продукт, уровень жизни населения.

SUSTAINABLE ECONOMIC DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF THE FINANCIAL POTENTIAL OF REGIONS

DSc, prof. Khasanov Bakhodir Akramovich
Tashkent State University of Economics
prof. Ismailov Ravshanjon Bakhritdinovich
Non-State Higher Education Institution
"University of Business and Science"
Akramov Golibjon Bahodir ugli
Scientific Research Center "Scientific Foundations and Problems
of the Development of the Economy of Uzbekistan"
under Tashkent State University of Economics

Abstract. For the sustainable and accelerated development of regions in Uzbekistan, it is advisable to introduce a unified system for assessing their comprehensive balanced development, the efficiency of resource utilization, economic, investment, and financial potential, to provide the necessary financial resources and opportunities for regional development, to further enhance the financial independence of local government bodies, and to further expand the scope of scientific research on developing and implementing strategies to ensure the completeness of local budget revenues. This article covers the issues of sustainable development of regions both theoretically and practically.

Keywords: national economy, region, potential, economic potential, financial potential, financial resource, budget potential, gross regional product, population living standards.

Kirish.

Xalqaro amaliyotda hududlar moliyaviy salohiyatini mustahkamlash, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirishda moliyaviy salohiyatning nafaqat institutsional, balki iqtisodiy, moliyaviy, mehnat, investitsion, innovatsion kabi tashkil etuvchilarining o'rnini aniqlashtirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xalqaro valyuta jamg'armasi hisobotida "...hududlar moliyaviy salohiyatini rivojlantirish, budjetlararo munosabatlarni takomillashtirish mamlakatlar Markaziy banki, Moliya vazirligi, soliq, statistika idoralari va moliya sektori kabi nazorat organlarining ustuvor vazifasi hisoblanadi, bu o'z navbatida hududlar aholisi turmush farovonligini oshirish, hududlar o'rtasidagi tafovutni qisqartirish orqali iqtisodiy o'sish sifatini oshirish borasida ilmiy izlanishlarni kengaytirishni taqozo etadi", deb ta'kidlanadi (XVJ,2021).

"O'zbekiston-2030" strategiyasida 2030 yilga qadar iqtisodiyot hajmini 2 barobar oshirish va "daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar" qatoriga kirish; hududlarni

kompleks rivojlantirish, urbanizatsiya strategiyasini amalga oshirish kabi ustuvor maqsad va vazifalarning belgilab berilishi hududlarni barqaror va jadal rivojlantirishni zarur moliyaviy resurslar bilan ta'minlash, hududlarning moliyaviy salohiyatini mustahkamlash borasidagi ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini yanada kengaytirishni taqozo qiladi (Decree,2023).

Adabiyotlar sharhi.

MDHda "hududning moliyaviy salohiyati" tushunchasi ilmiy muoamalaga o'tgan asrning 70-yillarida Volkov tomonidan kiritilgan (Volkov,1976). U moliyaviy salohiyatni moliyaviy resurslarning o'sishi bilan bog'laydi. Boshqacha aytganda, moliyaviy salohiyat yaratilgan milliy daromad moliyaviy resurslarini qayta taqsimlash jarayonlaridan so'ng ishlab chiqarish vositalari o'sishining moddiy-buyum tuzilmasida aks etadi. Muallif yangi ishlab chiqarish oqimlarini yaratishda moliyaviy salohiyatning rag'batlantiruvchi o'rnini alohida ta'kidlaydi. Tadqiqotchi Yo'ldoshev o'z tadqiqotlarida moliyaviy barqarorlik kategoriyasiga to'xtalib o'tadi va "moliyaviy barqarorlik - bu korxonada moliyaviy holatining barqarorligi, o'z va qarz mablag'lari o'rtasida doimiy muvozanatni saqlash orqali muvaffaqiyatli ishlash va rivojlanish qobiliyatidir" deb ta'rif beradi (Yuldashev, 2023).

Professor Xasanovning umumiy tahriri ostida chop qilingan "Moliya va soliqlar" darsligida moliyaviy salohiyat moliyaviy siyosatning natijaviy ko'rsatkichi, iqtisodiy o'sishning manbai sifatida talqin qilinadi (Xasanov, 2023).

Iqtisodiy ilmiy qarashlarning jadal rivojlanishiga qaramasdan, shuni ta'kidlash kerakki, hozirgi bosqichda "hududning moliyaviy salohiyati" tushunchasi va uning tarkibiy qismlarini aniqlashda yaxlit bir to'xtam mavjud emas.

Bugungi kunda ixtisoslashtirilgan ilmiy adabiyotlarda "salohiyat" tushunchasining turli xil talqinlari o'z aksini topgan. Bu o'z navbatida, mazkur tushunchaning turli faoliyat sohalarida keng qo'llanilishi bilan izohlanadi. Tadqiqot doirasida biz falsafa, sotsiologiya, psixologiya, jamiyatshunoslik va iqtisodiyotda qo'llaniluvchi ba'zi bir talqinlarni keltirib o'tamiz.

Mazkur tushunchaning keng mazmunga ega ekanligi u ilm va fanning turli sohalarida qo'llashga imkon beradi. O'zbek tilining izohli lug'atida "salohiyat" tushunchasi "vakolat, yaroqlilik, to'liq hokimiyat, iqtidor, qobiliyat" sifatida talqin qilinadi (Madvaliyayev,2020). "Salohiyat" tushunchasining talqini "har qanday vazifani hal qilish, ma'lum bir maqsadga erishish borasida foydalanilishi mumkin bo'lgan manbalar, imkoniyatlar, vositalar, zahiralari; shaxs, jamiyat yoki davlatning ma'lum bir sohadagi imkoniyatlari"ni ifoda etadi.

Tadqiqotchi Yo'ldoshevning fikricha, "korxonaning rivojlanish salohiyati - bu o'ziga xos tarkibiy qismlar (unsur va tashkil etuvchilar)ga ega bo'lgan murakkab tizim bo'lib, uni samarali boshqarish mazkur tizimning qanchalik o'rganilganligiga ko'p jihatdan bog'liq" (Yuldoshev,2023). Mualliflarning salohiyatning tizimli tavsifga egaligi borasidagi qarashlariga qo'shilgan holda, salohiyat resurs, imkoniyat va qobiliyatlarning mavjudligi bilan tavsiflanuvchi murakkab tuzilmaga ega bo'lgan tizim ekanligini ta'kidlaymiz.

Tadqiqot metodologiyasi.


Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning moliyaviy salohiyatning mohiyati, baholash va uni shakllantirish muammolarini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, ilmiy yondashuvlari, statistik, davriy axborot nashrlarida mavzuga oid chop qilingan ilmiy materiallar, Internet resurslari tashkil qiladi.

Ushbu maqolada quyidagi usullardan foydalanilgan: tahlil va sintez ("hududning moliyaviy salohiyati" va "hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish" tushunchalarini asoslashda), tizimli yondashuv (hududning moliyaviy salohiyatini boshqarishning konseptual sxemasini ishlab chiqish), induksiya va deduksiya (hududning moliyaviy salohiyatiga omillarning ta'sirini o'rganish), taqqoslash, guruhlash, tanlanma kuzatish (turli iqtisodiy tizimlarning salohiyatini ro'yobga chiqarish amaliyotini o'rganish), iqtisodiy va statistik usullar (hudud moliyaviy salohiyatining miqdoriy ko'rsatkichlarini tahlil qilish), moliyaviy

koeffitsiyentlar usullari (hududiy korxonalarining moliyaviy salohiyatini hisoblash); grafik usul (chizma va diagrammalar yaratish), mantiqiy umumlashtirish (xulosalar yasash), shuningdek matematik modellashtirish (hududning moliyaviy salohiyatini maqbullashtirish algoritmini ishlab chiqish).

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish milliy iqtisodiyotning muhim unsuri sifatida hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi barqarorligini ta'minlash borasida foydalaniluvchi salohiyatning samaradorligini eng yuqori darajada oshirishga imkon beruvchi o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi tamoyillarga asoslanishi lozim.



1-rasm. Hududning moliyaviy salohiyatini takomillashtirishning mantiqiy tuzilmasi
Manba: mualliflik ishlanmasi.

Xususan, mazkur tamoyillar sirasiga quyidagilar kiradi:

- tizimlilik va majmuaviylik, moliyaviy jihatdan o'zini o'zi ta'minlashga asosiy e'tibor qaratilishi;

- mamlakat va hududlarning makro, mezo va mikro darajada rivojlanishining o'zaro uyg'unligi;
- tashqi muhitdagi o'zgarishlarga moslashish;
- hududdagi barcha xo'jalik yurituvchi subyektlarning moliyaviy resurslar va ularga bo'lgan ehtiyojlar muvozanatiga erishish;
- strategik moslashuvchanlik;
- davlat-xususiy va ijtimoiy sheriklik;
- vaqtincha bo'sh moliyaviy resurslarni jamlash;
- iqtisodiy xavfsizlik.

Bunday sharoitda hududning moliyaviy salohiyatini boshqarish jarayonining asosiy g'oyasi hudud moliyaviy siyosatini ro'yobga chiqarishdan iboratdir. Hudud moliyaviy siyosati samaradorligining asosiy mezoni hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini moliyaviy qo'llab-quvvatlashning barqarorligi va aholi turmush darajasining o'sishi hisoblanadi.

Xalqaro valyuta jamg'armasi tomonidan e'lon qilingan hisobotlarga ko'ra, 2022 yilda dunyo mamlakatlari iqtisodiyotlarida ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan bo'lsada, geosiyosiy ziddiyatlar tufayli yuzaga kelgan jahon savdosidagi uzilishlar global iqtisodiy o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shunga qaramasdan, Markaziy Osiyo va Kavkaz mintaqasida, jumladan, O'zbekiston, Qirg'iziston va Ozarbayjon davlatlarida iqtisodiy o'sish tendetsiyasi saqlanib qolayotgan bo'lsa, mintaqadagi qolgan davlatlar va asosiy savdo hamkor mamlakatlarning aksariyatida iqtisodiy o'sish sur'atlari sekinlashishi kutilmoqda.

1-jadval

2023-2024 yillarda Xalqaro valyuta jamg'armasi va Jahon bankining mintaqadagi va asosiy savdo hamkor davlatlar uchun iqtisodiy o'sish prognozlari, foizda

Mamlakatlar	Xalqaro valyuta jamg'armasi		Jahon banki	
	2023 yil	2024 yil	2023 yil	2024 yil
Jahon iqtisodiyoti	3,0	2,9	2,5	2,1
Rossiya	2,2	1,1	1,6	1,3
Xitoy	5,0	4,2	5,1	4,6
Turkiya	4,0	3,0	4,2	3,1
Qozog'iston	4,6	4,2	4,5	4,3
Qirg'iziston	3,4	4,3	3,5	4,0
Tojikiston	6,5	5,0	6,5	5,0
Ozarbayjon	2,5	2,5	1,5	2,4
Gruziya	6,2	4,8	5,9	4,8

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Budjetnoma 2024-2026.

Prognozlarga ko'ra 2023-2024 yillarda O'zbekiston iqtisodiyoti 5,6-5,8 foiz doirasida, 2025-2026 yillarda mos ravishda 6,2 va 6,4 foizgacha o'sishi kutilmoqda. Bunda, 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotni 4 ming AQSh dollarga yetkazish bo'yicha belgilangan maqsadidan kelib chiqib prognoz qilingan.

Buning uchun keyingi yillarda dunyoda kuzatilayotgan iqtisodiy va siyosiy noaniqliklar qaramasdan O'zbekistonning barqaror o'sishini ta'minlash maqsadida:

- inson kapitalini rivojlantirish;
- energiya resurslari bozorini isloh qilish;
- korxonalarini xususiy lashtirish va transformatsiya qilishni jadallashtirish;
- tabiiy resurslardan, xususan suv resurslaridan oqilona foydalanish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda davlat-xususiy sherikligi asosidagi loyihalaridan foydalanishni kengaytirish choralari ko'zda tutilmoqda.

Respublikamizda iqtisodiy o'sishga tarkibiy islohotlarni izchil davom ettirilishi, shuningdek, fiskal va monetar siyosatning o'zaro muvozanatli yuritilishi orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlanishi hisobiga erishilmoqda.

2023 yilgi xalqaro moliya tashkilotlari tomonidan tayyorlangan O'zbekistonning iqtisodiy o'sish prognozlariga ko'ra 2023 yilda yalpi ichki mahsulot o'sishi 5,5 foiz atrofida va 2024 yilga borib ushbu ko'rsatkich 5,5-5,6 foizlar atrofida bo'lishi kutilmoqda (2-jadval).

2-jadval

O'zbekiston yalpi ichki mahsulotining o'sish sur'ati, foizda

	2023	2024	2025	2026
Xalqaro valyuta jamg'armasi	5,5	5,5	X	X
Jahon banki (2023 yil oktyabr)	5,5	5,6	5,8	X
Osiyo taraqqiyot banki (2023 yil aprel)	5,5	5,6	X	X
Milliy prognozlar	5,6-5,8	5,6-5,8	6,4	6,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi. Budjetnoma 2024-2026.

Fikrimizcha, hududning moliyaviy salohiyatini tavsiflashga imkon beradigan asosiy ko'rsatkichlar sirasiga hududning byudjet salohiyati, hududdagi korxonalarining moliyaviy salohiyati va hududning kredit salohiyati kiradi. Tahlil obyekti sifatida Sirdaryo, Jizzax va Toshkent viloyatlariga tegishli bo'lgan ma'lumotlarni keltirib o'tamiz (2-4-jadvallar).

3-jadval

Sirdaryo viloyatining 2016-2022 yillardagi byudjet salohiyati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2016 y	2017y	2018y	2019y	2020y	2021y	2022y
Mahalliy byudjet daromadlari (mlrd.so'm)	455,7	568,5	710,2	816,7	716,5	853,8	1147,8
Mahalliy byudjet xarajatlari (mlrd.so'm)	656,7	780,0	1184,6	1725,4	2375,6	1400	2671,1
O'zini o'zi qoplash darajasi (%da)	69,3	73,0	60,0	47,3	30,2	61,0	43,0

Manba: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Sirdaryo viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida tuzilgan.

2022 yilda mahalliy byudjetlarning daromadlari 49187,4 mlrd so'm miqdorida shakllantirilgan bo'lsa, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga hukumat darajasida e'tibor qaratilishi natijasida mahalliy byudjetlarning xarajatlari 88787,6 mlrd so'mga ijro etilgan. O'z navbatida mahalliy byudjetlarning muvozanatini ta'minlash maqsadida tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlarga alohida e'tibor qaratilgan. Xuddi shu kabi Sirdaryo viloyatida ham byudjet daromadlarining o'sishiga, hudud imkoniyatlarini ishga solishga alohida e'tibor qaratilishi asnosida tahlil etilayotgan davr mobaynida mahalliy byudjet daromadlari qariyb 2,5 marta o'sgan bo'lsa-da, byudjet xarajatlarining daromadlarga nisbatan o'sishi bir muncha yuqori bo'lgan. Jumladan, 2022 yil byudjet ijrosi yakunlarini tahlil qilar ekanmiz, Sirdaryo viloyati mahalliy byudjeti daromadlari 1147,8 mlrd. so'mni tashkil qilgan bo'lsa, byudjet xarajatlari 2671,1 mlrd. so'mdan ortiq bo'lgan. Ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetning o'zini o'zi qoplash darajasi atigi 43,0 foizni tashkil qilmoqda. 2023 yilda Sirdaryo viloyatining byudjet daromadlari 1406,1 mlrd. so'm, byudjet xarajatlari 2492,3 mlrd. so'm va byudjetlararo transfertlar 1086,2 mlrd. so'm miqdorida prognoz qilingan. Bu o'z navbatida,

nafaqat, Sirdaryo viloyati balki, boshqa hududlarda ham iqtisodiy salohiyatni mustahkamlash vazifasini dolzarb vazifa sifatida kun tartibiga qo'yadi.

4-jadval

Jizzax viloyatining 2016-2022 yillardagi byudjet salohiyati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2016 y	2017y	2018y	2019y	2020y	2021y	2022y
Mahalliy byudjet daromadlari (mlrd.so'm)	480,5	605,8	858,8	1 477,0	2 055,5	1 838,0	2 209,6
Mahalliy byudjet xarajatlari (mlrd.so'm)	992,4	1 083,9	1 849,3	2 534,7	2 057,7	2 927,2	3 928,5
O'zini o'zi qoplash darajasi (%da)	48%	56%	46%	58%	100%	63%	56%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Jizzax viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Mamlakatimiz hududlari kesimida tahlil qilar ekanmiz, atigi 2 ta hudud Navoiy viloyati va Toshkent shahri mahalliy byudjet daromadlari mahalliy byudjet xarajatlarini qoplash uchun yetarli ekanligiga guvoh bo'lamiz. Jizzax viloyatining resurs salohiyati yuqori bo'lsa-da, hudud byudjet xarajatlarini qoplashda byudjetlararo transfertlarning o'rni katta ekanligiga guvoh bo'lamiz. Xususan, 2023 yilda Jizzax viloyatining mahalliy byudjet daromadlari 2184,9 mlrd. so'm, mahalliy byudjet xarajatlari 3469,3 mlrd. so'm va byudjetlararo transfertlar 1284,4 mlrd. so'm miqdorida prognoz qilingan (Fuqarolar uchun byudjet, 2023). Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, mahalliy byudjetning o'zini o'zi qoplash darajasi 62,9 foizni tashkil qiladi.

Sirdaryo va Jizzax viloyatlarining mahalliy byudjetlari bilan taqqoslaganda, Toshkent viloyatining byudjet salohiyatini shakllantirishda soliq va soliqsiz tushumlarning o'rni bir muncha muhimligiga guvoh bo'lamiz.

Buning natijasi sifatida Toshkent viloyati byudjetining o'zini o'zi qoplash darajasi bir muncha yuqoriroq ekanligini ko'rishimiz mumkin, xususan, 2018 - 2022 yillar oralig'ida Toshkent viloyati mahalliy byudjetining o'zini o'zi qoplash darajasi 64,5-76,7 %ni tashkil qilmoqda.

2022 yilda Toshkent viloyati byudjetining daromadlarida solikli tushum-larning ulushi 89,1 %ni tashkil qilgan. Solikli tushumlarning o'sishi 2021 yilga nisbatan 5,6%ni tashkil qilgan. Umuman olganda viloyatda tahlil qilinayotgan davrda byudjetlararo transfertlar o'sish tendentsiyasiga ega bo'lganligini kuzatishimiz mumkin. Faqatgina 2023 yil byudjetida daromadlar va xarajatlar muvozanatiga erishish ko'zda tutilgan (mos ravishda daromadlar 5866,2 mlrd. so'm va xarajatlar ham 5866,2 mlrd. so'mni tashkil etishi kutilmoqda).

5-jadval

Toshkent viloyatining 2016-2022 yillardagi byudjet salohiyati ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	2016 y	2017y	2018y	2019y	2020y	2021y	2022y
Mahalliy byudjet daromadlari (mlrd.so'm)	1 817,7	1 775,0	1 949,3	3 721,5	2 395,5	3 734,1	4 526,0
Mahalliy byudjet xarajatlari (mlrd.so'm)	1 722,1	1 817,4	3 023,2	4 225,8	3 386,8	4 879,3	6 838,2
O'zini o'zi qoplash darajasi (%da)	105,0	97,6%	64,3	88,1%	70,7%	76,6%	66,2%

Manba: O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi va Toshkent viloyati Iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining tegishli yillar bo'yicha ma'lumotlari asosida tuzilgan.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida byudjet tizimi va byudjet siyosati faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan byudjet salohiyati va byudjet mexanizmining davlat tasarrufida moliyaviy resurslarni to'play olish qobiliyatiga bog'liq. Hududiy byudjet siyosatini baholashda muayyan bir ko'rsatkichlarni hisob-kitob qilish uslubiyotidan foydalanishni tavsiya qilamiz, bu o'z navbatida hudud darajasida amalga oshiriluvchi byudjet siyosatini yaxlit va har tomonlama tahlil qilish imkonini beradi.

6-jadval

Hududiy byudjet siyosatini tahlil qilish uslubiyoti

Ko'rsatkich	Hisoblash formulasi	Ko'rsatkichning chegaraviy qiymati
1	2	3
Byudjet mustaqilligi darajasi, %	$Bmd = Od/D * 100\%$	Kamida 50%
Byudjetning bog'liqlik darajasi, %	$Bbd = Btr/D * 100\%$	Kamida 50%
Byudjetning barqarorlik darajasi, %	$Bbar.d = Btr/Od * 100\%$	100% dan kam emas
Byudjet taqchilligi darajasi, %	$Btd = Taqch/Od * 100\%$	Mahalliy byudjet daromadlari hajmining 10 foizidan ko'p emas
Mahalliy hokimiyat idoralarining ish faolligi darajasi, %	$Mf.d. = Sz.dar/Od * 100\%$	Hudud tumanlari kesimida o'rtacha
Olingan daromadlar tarkibida solikli daromadlarning ulushi, %	$Sd.ul. = Sd/Od * 100\%$	60-70%
Byudjetni qoplash indeksi, marta	$Bqi = D/X$	1,00 va undan yuqori
Aholi jon boshiga byudjet daromadlari darajasi, bir kishiga so'm	$B.ah.bosh = D/A.s.$	Hudud tumanlari kesimida o'rtacha
Aholining byudjet mablag'lari bilan ta'minlanganlik darajasi, bir kishiga so'm	$Btd = X/A.s.$	Hudud tumanlari kesimida o'rtacha
Byudjetning eksportga bog'liqlik darajasi, marta	$Bebd = B.d.o'.s./He.h.o'.s.$	1,00 va undan yuqori

Izoh:

D – byudjet daromadlarining umumiy hajmi;

X – umumiy byudjet xarajatlari;

Od – olingan daromadlar, ya'ni byudjetlararo transfertlarni chegirgan holda byudjet daromadlarining umumiy hajmi;

Btr – davlat byudjetidan byudjetlararo transfertlar;

$Sz.dar$ – soliqsiz daromadlar;

Sd – solikli daromadlar;

$Taqch$ – taqchilik ko'lam;

$A.s.$ – hudud aholisi soni;


$B.d.o'.s.$ – byudjet daromadlarining o'sish sur'ati;

$He.h.o'.s.$ – hudud eksporti hajmining o'sish sur'atlari.

Davlat yoki uning hududlari darajasida amalga oshiriluvchi byudjet siyosati to'g'risida so'z yuritar ekanmiz, birinchi navbatda byudjet barqarorligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratish talab qilinadi. Shuni ta'kidlash lozimki, byudjetning barqarorligi byudjetning daromad qismi xarajatlar borasidagi majburiyatlarni qay darajada bajarishga yetarli ekanligini anglatgani holda, to'g'ridan-to'g'ri rivojlanish sur'ati va hududning daromad salohiyatidan foydalanish darajasiga bog'liq sanaladi, chunonchi byudjet daromadlari davlatning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy byudjet siyosati samaradorligini oshirish borasida muayyan ijobiy siljishlar ko'zga tashlanayotgan bo'lsa-da, Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining daromadlari o'z xarajatlarini to'liq qoplashga imkon bermaydi, xususan, byudjetni qoplash indeksi o'zining chegaraviy qiymatidan pastligicha qolib ketmoqda, bu holatni Jizzax va Toshkent viloyatlarida ham kuzatish mumkin (2-rasm).

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda O'zbekistonning aksariyat hududlarida mahalliy byudjetlarning daromad qismi xarajatlarni qoplash imkonini bermaydi, bu o'z navbatida mahalliy davlat boshqaruvi idoralari e'tiborini hududlarning raqobatbardosh ustunliklarini rivojlantirishga qaratish zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. 2016-2022 yillarda Sirdaryo, Toshkent va Jizzax viloyatlarida byudjetni qoplash indeksi dinamikasi (chegaraviy qiymat 1,0 ga teng)

Manba: muallif hisob-kitoblari.

Moliyaviy salohiyatni takomillashtirish borasidagi mavjud muammoni hal qilish maqsadida matematik modeldan foydalanish taklif etiladi, mazkur iqtisodiy-matematik model avvalgi modellardan farqli tarzda chiziqli dasturlashning maxsus simpleks usuli yordamida amalga oshiriladi va korrelyatsion tahlil yordamida moliyaviy salohiyatning tarkibiy qismlarining unsurlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadi. Tegishli yondashuvlarni qo'llash ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga olgan algoritm ko'rinishida amalga oshiriladi, bu o'z navbatida iqtisodiy tahlil uchun jalb qilinishi va ishlatilishi mumkin bo'lgan obyektiv va subyektiv imkoniyatlarning maqbul qiymatlarini olishga yordam beradi. Taklif etilayotgan maqbullashtirish modelidan amalda foydalanish moliyaviy salohiyat imkoniyatlaridan yuqori darajada foydalanishga yordam beradi, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va moliyaviy o'zini o'zi ta'minlash darajasining o'sishini ta'minlaydi.

Iqtisodiy - matematik modellashtirishga asoslangan yondashuvlar hududning moliyaviy salohiyatini maqbullashtirishda keng qo'llaniladi. Muammoni hal qilish moliyaviy salohiyatning asosiy ko'rsatkichlarini shakllantirish va uning tarkibiy qismlarini modellashtirish uchun ikkita mavzuli belgilashlarni kiritishni taqozo etadi. Umuman olganda, maqbullashtirish modelini yaratish hudud moliyaviy salohiyati unsurlarini iqtisodiy - matematik modellashtirishni kompleks qo'llash borasidagi maqsad, usul va yondashuvlar majmuini aks ettiradi.

Maqbullashtirish modeli ustida ustuvorliklar usuli yordamida hisob-kitoblarni amalga oshirishda simpleks usulidan foydalanish qo'l keladi. Moliyaviy salohiyatni maqbullashtirish borasidagi yondashuvlarni ketma-ket bajarilishi asnosida obyektiv va subyektiv imkoniyatlarning maqbul qiymatlarini olishga yordam beruvchi algoritm ko'rinishida tasvirlash mumkin (7-jadval).

7-jadval

Hudud moliyaviy salohiyatini maqbullashtirish bosqichlari

Bosqichlar	Bosqich tabiati	Natija
Birinchi	Tahlil vazifasini belgilash	Moliyaviy salohiyat unsurlarini aniqlashtirish (aniqlashtiruvchi omillar)
Ikkinchi	Hudud moliyaviy salohiyatini matematik ifodalash	Hudud moliyaviy salohiyatining tarkibiy qismlari matematik ko'rinishda tegishli tarzda harfli belgilar (x) bilan ifodalanadi
Uchinchi	Moliyaviy salohiyatning tashkil etuvchilarini modellashtirish	Moliyaviy salohiyatning har bir tashkil etuvchisi uchun ko'p omilliy model ko'rinishidagi chiziqli bog'liqliklar aniqlashtiriladi
To'rtinchi	Hudud moliyaviy salohiyatini maqbullashtirishning matematik modelini shakllantirish	Chiziqli dasturlash usullaridan foydalangan holda matematik model yaratish
Beshinchi	Modelni aprobatsiyadan o'tkazish	Modelni amalda qo'llash, yo'nalishli maqbullashtirish usullaridan foydalanish
Oltinchi	Bashoratli maqbullashtirish salohiyatini modellashtirish	Namuna sifatida olingan hudud (mintaqalar) ma'lumotlaridan foydalangan holda modellashtirish

Mualliflik uslubiyotini amalga oshirish uchun, birinchi navbatda, hududning moliyaviy salohiyati tarkibiy qismlarini matematik tarzda ifodalaymiz. maqsadli funktsiyalarning tashkil etuvchilarini aniqlashtirish va ularni matematik tarzda ifodalashga o'tamiz (8-jadval).

Shunday qilib, hudud moliyaviy salohiyatini maqbullashtirish modeli quyidagilarga asoslanadi:

- funktsiyaning ekstremumini aniqlash jarayoni (turli xil mumkin bo'lgan variantlardan eng yaxshi variantni tanlash);
- ko'rsatkichlarni eng yaxshi ko'rinishga keltirish tartibi (maqbul ko'rinish);
- bevosita maqbullashtirish jarayoni, qolgan ko'rsatkichlar qiymatini yomonlashtirmasdan, ba'zi ko'rsatkichlarni yaxshilash yo'llarini izlash.

8-jadvalda keltirilgan belgilashlardan foydalanib, moliyaviy salohiyatning har bir tashkil etuvchisi uchun ko'p omilliy model ko'rinishida chiziqli bog'liqliklarni yaratish mumkin.

8-jadval

Hudud moliyaviy salohiyatini matematik ifodalash

Moliyaviy salohiyat guruhlari	Salohiyat unsurlari (omillar)	Matematik ifodalash
Byudjet salohiyati	Soliq va soliqsiz tushumlar	x1
	Beg'araz yordam	x2
Korxonaning moliyaviy salohiyati	Xususiy kapital	x3
	Kelgusi xarajat va to'lovlarni amalga oshirish	x4
	Uzoq muddatli majburiyatlar	x5
	Joriy majburiyatlar	x6
	Kelgusi davr daromadlari	x7
	Kichik biznes korxonalari moliyaviy salohiyati	x8
	Hudud o'rta va yirik korxonalari moliyaviy salohiyati	x9
Kredit salohiyati	Banklararo kreditlar	x10
	Mijozlarning mablag'lari	x11

Bu o'z navbatida hudud moliyaviy salohiyati tashkil etuvchilari, o'zaro bog'liq o'zgaruvchi (y_i)larni aniqlashtirishni taqozo qiladi, olingan ma'lumotlarni tizimlashtiramiz $i \in N_3$.

9-jadval

Moliyaviy salohiyatning asosiy unsurlarini modellashtirish

Moliyaviy salohiyat unsurlari	Moliyaviy salohiyat tashkil etuvchilarini taqdim etishning matematik modeli
y_1 - byudjet salohiyati	$y_1 \approx a1x_1 + a2x_2 + e$ - ikki o'zgaruvchili ko'p omilli chiziqli model
y_2 - korxonalarining moliyaviy salohiyati	$y_2 \approx a3x_3 + a4x_4 + a5x_5 + a6x_6 + a7x_7 + a8x_8 + a9x_9 + e$ - yettita o'zgaruvchili ko'p omilli chiziqli model
y_3 - kredit salohiyati	$y_3 \approx a10x_{10} + a11x_{11} + e$ - ikki o'zgaruvchili ko'p omilli chiziqli model

Shu tariqa, kiritilgan belgilashlar asosida hudud moliyaviy salohiyati unsurlarini matematik ifodalash imkoniga ega bo'lamiz (9-jadval).

Moliyaviy salohiyatni maqbullashtirish vazifasi uning asosiy unsurlari (byudjet salohiyati, korxonalarining moliyaviy salohiyati, kredit salohiyati) asosida matematik model ko'rinishida ifoda qilinishi mumkin. Tadqiqotda belgilangan vazifaning matematik modelini yaratish borasida chiziqli dasturlash yondashuv-laridan foydalanamiz. Ushbu yondashuvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyati hudud moliyaviy salohiyatining tarkibiy qismlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganish, shuningdek uni maqbullashtirishning mumkin bo'lgan yo'nalishlarini modellashtirish zarurati bilan izohlanadi.

Ushbu holatda qo'yilgan masala quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$1. x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, x_3 \geq 0 \dots x_n \geq 0$ o'zgaruvchilarning chiziqli cheklovlar tizimini qanoatlantiruvchi qiymatlarini topish:

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n \leq b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n \leq b_2 \\ \dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \dots + a_{mn}x_n \leq b_m \end{cases} \quad (1)$$

Bu yerda:

$v - \geq; \leq;$ = belgilashlardan birining qabul qilinishini anglatuvchi belgi;

$a_{ij}, i = (1,2\dots n), j = (1,2\dots m)$ - moliyaviy salohiyat unsurlarini hisob-kitob qilish jarayonida haqiqiy qiymatga ega bo'ladigan model koeffitsientlari;

n - unsurlar soni;

m - moliyaviy salohiyat unsurlari soni;

$b_j, j = (1,2,3\dots m)$ - haqiqiy son qiymatlarini qabul qiluvchi model koeffitsientlari, ular moliyaviy salohiyatning obyektiv va subyektiv tashkil etuvchilarining mumkin bo'lgan cheklovlarini tavsiflaydi.

2. $x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, x_3 \geq 0 \dots x_n \geq 0$ o'zgaruvchilarning tegishli qiymatlari chiziqli funktsiyaning ekstremumi qiymatini oladi:

$$Z = c_1x_1 + c_2x_2 + \dots + c_nx_n = \sum_{j=1}^n c_jx_j \quad (2)$$

Ushbu funktsiya maqsadli funktsiya maqomiga ega bo'ladi. Bu hudud moliyaviy salohiyati tashkil etuvchilaridan birining imkoniyatlarini maqbul-lashtirish borasida qo'yilgan maqsadni aks ettiradi, qolgan tashkil etuvchilar cheklovchi maqomida xizmat qilishi mumkin. Chiziqli dasturlash masalalarida ikkita o'zgaruvchilarni tanlashda chiziqli tengsizliklar yoki chiziqli tenglamalar shaklidagi bir xil cheklovlar turlarini ajratish mumkin. Bundan tashqari, uni soddalashtirish maqsadida maqsadli funktsiyaning maksimumi uchun vazifani shakllantirish mumkin bo'ladi:

$$Z = c_1x_1 + c_2x_2 + \dots + c_nx_n$$

$\geq; \leq;$ = belgilarni v - belgisi bilan belgilash orqali umumiy chiziqli dasturlash masalasining matematik modelini yaratishni inobatga olgan holda, (3.1) va (3.2) formulalarni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$(\max)Z = c_1x_1 + c_2x_2 + \dots + c_nx_n \quad (3.3)$$

$$\begin{cases} a_{11}x_1 + a_{12}x_2 + \dots + a_{1n}x_n \{ \leq, =, \geq \} b_1 \\ a_{21}x_1 + a_{22}x_2 + \dots + a_{2n}x_n \{ \leq, =, \geq \} b_2 \\ \dots \\ a_{m1}x_1 + a_{m2}x_2 + \dots + a_{mn}x_n \{ \leq, =, \geq \} b_m \\ x_1 \geq 0, x_2 \geq 0, \dots x_n \geq 0. \end{cases} \quad (3.5)$$

O'z navbatida (3.4) va (3.5) shartlarini qondiruvchi $x_1, x_2, x_3 \dots x_n$ o'zgaruvchilarning qiymatini topish talab qilinadi va bu o'z navbatida minimal va maksimal qiymat oladi va moliyaviy salohiyatni amalga oshirish samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi.

(3) cheklovlar tizimi va (5) tenglamaning inkor etmaslik shartlariga mos keluvchi $X = (x_1, x_2, \dots x_n)$ vektorning koordinatalari chiziqli dasturlash vazifasining mumkin bo'lgan echimi hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda, $x_1, x_2, x_3 \dots x_n$ o'zgaruvchilarning chiziqli bog'liq emaslik sharti bajarilishi lozim, ya'ni moliyaviy salohiyat unsurlari o'zaro korrelyatsiyalanmasligi zarur. Shu sababli moliyaviy salohiyat tashkil etuvchi-larining unsurlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'rganish va ular o'rtasida multikollinearlikni o'rnatish maqbullashtirish modelini yaratish jarayonida juda muhim jihat hisoblanadi.

$r, 0 \leq r \leq 1$ to'plam korrelyatsiyasi koeffitsientini hisob-kitob qilish va korrelyatsiya juft koeffitsientlari matritsasini aniqlashtirish asnosida x_1, x_2, \dots, x_n o'zgaruvchilar o'rtasidagi aloqalar zichligini aniqlashtirish talab qilinadi:

$$r = \begin{pmatrix} r_{x_1x_1} & r_{x_1x_2} & \dots & r_{x_1x_n} \\ r_{x_2x_1} & r_{x_2x_2} & \dots & r_{x_2x_n} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ r_{x_nx_1} & r_{x_nx_2} & \dots & r_{x_nx_n} \end{pmatrix} \quad (5)$$

Maqbullashtirish modelini yaratishda moliyaviy salohiyatni maksimal darajada oshirish vazifasini ko'p mezonli maqbullashtirish vazifasi sifatida taqdim qilish tavsiya etiladi. Buning natijasida ko'plab $X=(x_1, x_2, \dots, x_3)$ muqobillarga ega bo'lgan quyidagi maqbullashtirish modeliga ega bo'lamiz:

$$F(x): X \rightarrow R, \quad F(x) = (f_1(x), \dots, f_i(x), \dots, f_i(x)) \rightarrow extr \in \{min, max\}, \quad (6)$$

Bu yerda: $F(x): X \rightarrow R$ - maqbullashtirish natijasi sifatida moliyaviy salohiyat unsurlarining olingan qiymatini aks ettiradi.

Moliyaviy salohiyat asosiy tashkil etuvchilarini aks ettiruvchi asosiy mezonlar 3.7 model orqali maqbullashtirilishi va quyidagicha ifoda qilinishi mumkin:


$$y_1 = f(x) \rightarrow \max(\min), i \in N_3 \quad (7)$$

Bu yerda: $y_1 \approx a1x_1 + a2x_2 + e$ - byudjet salohiyatining maksimal darajasi;

$y_2 \approx a3x_3 + a4x_4 + a5x_5 + a6x_6 + a7x_7 + a8x_8 + a9x_9 + e$ - korxonalar moliyaviy salohiyatining maksimal darajasi;

$y_3 \approx a10x_{10} + a11x_{11} + e$ - kredit salohiyatining maksimal darajasi.

Yuqorida keltirilgan tenglamalardan foydalangan holda olingan regression model mustaqil o'zgaruvchilar orasida kuchli multi-kolleniarlik mavjudligini ko'rsatadi, shundan kelib chiqqan holda, tahlillarning ishonchlilik darajasini oshirish va tasodifiy xatolar qiymatini pasaytirish borasida vaqtli qatorlar modelidan foydalanishga qaror qilindi.




3-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda YaHMda kichik biznes ulushining o'zgarishi, %da

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.

Moliyaviy salohiyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillar orasida kichik biznesning rivojlanish darajasi va uning YaIMdagi ulushi muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda YaIMda kichik biznes va tadbirkorlikning ulushi 2022 yilda 51,8 %, 2023 yilda esa 51,2 foizni tashkil qilgan bo'lsa, Sirdaryo viloyatida bu ko'rsatkich Respublika ko'rsatkichidan bir muncha yuqori ekanligini ko'rishimiz mumkin, xususan tahlil etilayotgan yillar oralig'ida viloyatda kichik biznesning YaHMdagi ulushi 67 %dan 77 % gacha o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Hududlar moliyaviy

salohiyatini oshirish, byudjetga solikli tushumlarning o'sishini ta'minlashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ahamiyatlilik darajasini inobatga olgan holda, vaqti qatorlar modelidan foydalangan holda, Sirdaryo viloyatida kichik biznesni rivojlantirishning 2030 yilgacha bo'lgan ko'p (quyi, o'rtacha, yuqori) variantli bashorati ishlab chiqildi. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda pessimistik variant bo'yicha kichik biznesning YaHMdagi ulushi 68,2%, o'rtacha variantga ko'ra 82,4 % va yuqori variantda esa 96,7%ni tashkil etishi aniqlandi (3-rasm).

O'zbekistonni 2030 yilgacha bo'lgan muddatda ijtimoiy-itisodiy jihatdan barqaror rivojlantirishning strategik maqsad va vazifalarini belgilab beruvchi strategik hujjat "O'zbekiston-2030" strategiyasida Sanoatning "drayver" sohasini rivojlantirish va hududlarning sanoat salohiyatini to'liq ishga solish masalalariga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqotchi Buranova "YaHM tarkibida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshishi yana ham daromadlar bazasining oshishiga olib keladi. Buning uchun sanoat tarmog'i muammolarini o'rgangan holda negativ ta'sir omillarini kamaytirib, sharoitlar yaratilishi evaziga amalga oshirilishi mumkin" -deb hisoblaydi (Buranova,2022).




4-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda YaHMda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, mlrd.so'mda

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.

Sirdaryo viloyatida ham sanoat loyihalarini amalga oshirish natijasida YaHMda sanoat ishlab chiqarishning ulushi o'sib borayotganligini, xususan tahlil qilinayotgan davr mobaynida YaHMda sanoat ishlab chiqarish hajmi 3,5 marta o'sganligini ko'rishimiz mumkin. Tahlillarga ko'ra, 2030 yilgacha bo'lgan muddatda YaHMning o'rtacha o'sish ko'rsatkichi 7 %ni tashkil etgani holda, sanoat ishlab chiqarishning o'sish sur'ati o'rtacha 9%ni tashkil qiladi, bu o'z navbatida moliyaviy salohiyatning mustahkamlanishiga xizmat qiladi (4-rasm).

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun iqtisodiyotning boshqa sektorlari mahsulotlari, xususan sanoat mahsulotlari (o'g'itlar, asboblari va mashinalar)ga talab paydo bo'ladi, qishloq xo'jaligida band bo'lgan va qishloq hududlarida istiqomat qiluvchi aholi daromadlarining o'sishi asnosida zaruriy iste'mol tovarlariga talab ortib boradi. Qishloq xo'jaligi Sirdaryo viloyati yalpi hududiy mahsulotida muhim o'rin tutadi. YaHMda qishloq xo'jaligining ulushi 39,4%, sanoatning ulushi 24,9 %, qurilish 8,0% va xizmatlar 27,7%ni tashkil qiladi (2022).



5-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda YaHMda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'zgarishi, mlrd.so'mda

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.


Bashorat qilinayotgan davrda qishloq xo'jaligining yillik o'rtacha o'sish sur'ati 7,5%ni tashkil etishi, optimistik prognozga ko'ra qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 23393 mlrd.so'mga etishi kutilmoqda (5-rasm).

Xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi asnosida keyingi o'ttiz yil ichida zamonaviy iqtisodiyot tuzilmasida xizmatlar sohasining yaqqol ustunligi ko'zga tashlanadi: bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlarda YaIM tuzilmasi va iqtisodiyotda band bo'lganlar tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 70-80 %ni tashkil qiladi, kapital qo'yilmalarining 2/3 qismi xizmatlar sohasiga to'g'ri keladi. Iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashning ustuvorliklaridan kelib chiqqan holda, "O'zbekiston-2030" strategiyasida hududlarda xizmat ko'rsatish va servis sohaslarini rivojlantirish orqali xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish vazifasi belgilab berilgan.

Hududlar kesimida ko'rsatilgan xizmatlar hajmida Sirdaryo viloyatining ulushi nisbatan kichik bo'lgani holda, Respublika bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning atigi 1,2 %i tahlil qilinayotgan hududga to'g'ri keladi.

Tahlillarga ko'ra, 2030 yilgacha bo'lgan muddatda xizmatlar sohasining o'rtacha yillik o'sish sur'ati 9,5%ni tashkil qilishi kutiladi, xizmatlar sohasining YaHMdagi ulushi

bashoratlashning yuqori chegarasi bo'yicha 79,7 %, o'rtacha chegara bo'yicha 75,5%, pessimistik prognoz bo'yicha esa 71,5 % ga yetadi (7-rasm).




6-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda xizmat ko'rsatish hajmining o'zgarishi, mlrd.so'mda

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.


Asosiy kapitalga investitsiyalar iqtisodiyot tuzilmasini takomil-lashtirish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ishga tushirish orqali bandlik va aholi daromadlarini oshirishda muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi dinamikasi o'sish tendentsiyasiga egaligini ko'rishimiz mumkin. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni aholi jon boshiga nisbatan tahlil qilish maqsadga muvofiq. O'rganishlar 2020-2023 yillar oralig'ida aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar Respublika bo'yicha 6140,3 ming so'mdan 9668,8 ming so'mgacha o'sgan bo'lsa, bu ko'rsatkich Sirdaryo viloyatida 8425,5 ming so'mdan 16954,7 ming so'mgacha o'sgani holda, bu ko'rsatkich Respublika ko'rsatkichidan 1,75 marta yuqori bo'lgan. Investitsiyalar hajmining o'zgarishi borasida amalga oshirilgan tahlillar 2030 yilgacha bo'lgan muddatda uchchala prognoz variantida ham investitsiyalarning o'sishi ijobiy tendentsiyaga ega bo'lishini ko'rsatmoqda, xususan investitsiyalarning o'rtacha yillik o'sish sur'ati 10 %dan yuqori ko'rsatkichni tashkil qiladi (8-rasm).

Hududlar tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solish, eksport salohiyatini kuchaytirish va uning tarkibida qo'shilgan qiymati yuqori bo'lgan mahsulotlar ulushini keskin oshirish moliyaviy salohiyat, mahalliy byudjetning mustaqillik darajasini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Vaqtli qatorlarga asoslangan tahlillarni amalga oshirish asnosida hudud eksport salohiyatining o'zgarish sur'atlari beqaror ekanligi aniqlandi, xususan tahlillarga ko'ra, pessimistik prognoz bo'yicha eksport hajmi 2030 yilga borib 419,6 mln. AQSh dollari, realistik prgonoz bo'yicha 531,1 mln. AQSh dollari, optimistik prognoz bo'yicha esa 642,7 mln. AQSh dollarini tashkil etilishi kutiladi (9-rasm).



8-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda investitsiyalar hajmining o'zgarish dinamikasi, mlrd.so'mda

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.




9-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda eksport hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. AQSh dollari

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.

Import hajmida ham prognoz qilinayotgan davrda o'sish tendentsiyasi kuzatiladi, bu o'z navbatida hududda yangi sanoat loyihalarini ishga tushirish, asosiy fondlarni yangilash va modernizatsiyalash kabi ustuvorliklar bilan bog'liq.

Import hajmi 2016 yildan 2023 yilgacha bo'lgan muddatda 5,6 marta o'sgan bo'lsa, prognozning uchchala variantida bo'yicha 2030 yilgacha bo'lgan muddatda ham import hajmining o'sish tendentsiyasi saqlanib qoladi (10-rasm).




10-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda eksport hajmining o'zgarish dinamikasi, mln. AQSh dollari

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.

Tadqiqotchi Buranova o'z tadqiqotlarida "hududlarning mahalliy byudjet daromad barqarorligi hududlarning byudjet daromadlari bazasining barqarorligiga, Yalpi Hududiy Mahsulot miqdoriga, hududda ruyxatdan o'tgan turli mulk shaklidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar barqarorligiga, mehnat resurslarining tarkibi, miqdori va salohiyatiga, hududning asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarni hajmi, jalb qilish jozibadorligiga, davlatda olib borilayotgan monetar siyosatga, moliyaviy siyosatga, hududdagi iqtisodiy salohiyatini oshirish darajasiga bog'liq" ekanligini ta'kidlaydi (Buranova, 2022). Ko'rinib turibdiki, moliyaviy salohiyatning har bitta unsuri pirovard natijada hudud byudjet bazasi, moliyaviy salohiyat darajasining oshishiga ta'sir etadi.


Hududlarning moliyaviy salohiyati o'sish darajasi bevosita hududning iqtisodiy salohiyati o'sish darajasiga hamda hududning ijtimoiy - iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga bog'liq bo'ladi. Yuqorida amalga oshirilgan hisob-kitoblarimiz asosida mahalliy byudjet daromadlar bazasining 2030 yilga bo'lgan muddatda o'zgarish sur'atlarini tahlil qilish asoslangan natijalar olish imkonini beradi. Xususan, prognostik hisob-kitoblarga ko'ra, 2030 yilgacha bo'lgan muddatda pessimistik variantda mahalliy byudjet daromadlari 1165,0 mlrd. so'm, o'rtacha variantda 1623,1 mlrd.so'm va yuqori variantda 2081,1 mlrd. so'mgacha o'sishi kutiladi (11-rasm).



11-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda mahalliy byudjet daromad-larining o'zgarish dinamikasi, mln. AQSh dollari

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.

Biroq, 2024 -2030 yillar oralig'ida Sirdaryo viloyati mahalliy byudjetining kutilayotgan xarajatlari kutilayotgan daromadlardan yuqori bo'lishi bashorat qilinmoqda (11-rasm), bu o'z navbatida hudud salohiyatini mustahkamlash borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirishni taqozo qiladi.



12-rasm. 2030 yilgacha bo'lgan muddatda Sirdaryo viloyati mahalliy byudjet xarajatlarning o'sishi, mlrd.so'm

Manba: mualliflarning hisob-kitoblari.

Xulosa va takliflar.

Iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida Sirdaryo viloyatini moliyaviy jihatdan rivojlantirish va mahalliy byudjet daromadlari bazasini mustahkamlash strategiyasining asosiy yo'nalishlari sirasiga quyidagilar kiradi:

- mahalliy moliya tizimining hududiy tuzilmasini takomillash-tirish, quyi bo'g'in byudjetlarining yuqori turuvchi byudjetlarga bog'liqligini maqbullashtirish;
- soliq ma'murchiligini takomillashtirish orqali yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirish;
- moliyaviy intizomni mustahkamlash;
- hududiy darajada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash;
- mahalliy byudjetni istiqbolli rejalashtirish va bashorat qilish;
- hududlarni rivojlantirishga yo'naltirilayotgan byudjet mablag'lari samradorligini oshirish;
- hududlararo integratsion aloqalarni kuchaytirish.

Biroq, bizning fikrimizcha, hududlarni moliyaviy rivojlantirish strategiyasi maqsadlarni yuqori aniqlikda belgilab olishga asoslanishi lozim. Ushbu Konsepsiyada, birinchi navbatda, maqsadlar va amalga oshirish vositalari, shuningdek, hududiy moliyaviy rejalashtirish jarayonlarini prognoz qilish natijalari (yakunlari) aks etishi zarur.

Hudud moliyaviy strategiyasining samarali konsepsiyasi quyidagi savollarga javob berishi kerak:

- davlat boshqaruvi organlari hududiy rivojlanishga qanday va qaysi moliyaviy ta'sir vositalarini jalb qilgan holda ta'sir ko'rsatishi mumkin;
- rejalashtirilgan tadbirlarning amalga oshirilishi hududga qanday samara beradi;
- hudud moliyaviy strategiyasini shakllantirish va amalga oshirish borasida zaruriy shart-sharoitlar tizimini yaratishning infratuzilmaviy sarf-xarajatlari qay darajada bo'ladi?

Adabiyotlar /Lumepamypa/Reference:

Abdovakhidov A., Kamilova S. (2021) *ECONOMETRIC MODELS OF INCOME, CONSUMPTION AND POPULATION DIFFERENTIATION // Economic Development and Analysis. - Vol. 2. - No. 11. - P. 44-54.*

Abdovokhidov, A., Kadirova, D., & Obilov, M. (2023). *Ways to Improve the Income Base of Local Budgets in Uzbekistan. Economic Development and Analysis, 1 (1), 4-12.* Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/eitt/article/view/44627>.

Budget (2023) *Ministry of Economy and Finance of the Republic of Uzbekistan. Budget 2024- 2026. T.*

Budget for Citizens (2023) Budget for Citizens: Approved Budget for 2023 Newsletter. T.

Buranova L.V. (2022) *Assessment of the financial potential of the regions and issues of strengthening the income of local budgets (in the case of Surkhandarya region). Monograph Termiz: "IRFON-PRINT" publishing house.- 184b.*

Decree (2023) *Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 11, 2023 No. PF-158 on the "Uzbekistan-2030" strategy.*

IMF (2021) *Annual report of the International Monetary Fund for 2021 / https://www.imf.org/external/pubs/ft/ar/2021/eng/downloads/imf-annual-report-2021-ru.*

Khasanov B.A. et al. (2023) *Finance and taxes. T.: "Economic World", - 564 p.*

Madvaliyayev A. (2020) *An explanatory dictionary of the Uzbek language. "National Encyclopedia of Uzbekistan" state scientific publishing house. T.*

Volkov, A.M. (1976) *Long-term planning of financial resources /M.: Finance, P.54.-59.*

Yuldashev F. T. (2023) *"Ways to ensure the financial stability of industrial enterprises in the process of transformation of the economy" 08.00.07 - Doctor of Philosophy (PhD) dissertation on the specialty of finance, money circulation and credit // T.*